



AKTSIONERLIK JAMIYATLARIDA PUL MABLAG‘LARINING TASHKIL ETILISHI

Usmonov Sherzodbek Murodjon o‘g‘li.

Andijon Mashinasozlik instituti

“Iqtisodiyot” fakulteti “Buxgalteriya hisobi va audit”

yo‘nalishi 4- bosqich k-11-20 guruh talabasi.

Email: sherzodbeku49@gmail.com

Aksionerlik jamiyatlarida amalga oshiradigan har qanday faoliyat turi pul mablag‘larini talab qiladi. Aksionerlik jamiyatlarida pul mablag‘lari asosida maxsulot, ish va xizmatlarni sotishdan, shuningdek qimmatbaxo kogozlarni va mol mulkni sotishdan kelib tushadi. Yangi tashkil bulayotgan korxonalariga esa tasvirchilar ustav kapitalini shakllantirish uchun bankdagi hisoblash schyotiga naqd pul topshirishi yoki utkazib berish (yuridik shaxslar) mumkin.

Aksionerlik jamiyatlarida uziga tegishli bulgan pul mablag‘larini o‘zining asosiy va qo‘shimcha faoliyatni rivojlantirish, tovar moddiy qiymatliklarini sotib olish, ishchi va xizmatchilarga ish xaki tulash, kapital qo‘yilmalarni (ishlab chiqarish va madaniy-maishiy obyektlarni kurish, avtomobillar, traktorlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish, ko‘p yillik mevali va manzarali daraxtlarni o‘tkazish va o‘stirish, shuningdek asosiy podani tashkil kilish) o‘zlashtirish va davlat budjeti va budjetdan tashkari fondlarga va boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga kursatgan xizmatlari uchun xujalik subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonuniyatlar va meyoriy hujjatlarda qilinmagan maqsadlarga sarflash mumkin.

Aksionerlik jamiyatlarida pul mablag‘larining tashkil etilishi muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayonning asosiy bosqichi quyidagicha o‘zlashtiriladi:

Aktivlarning Baholash va Moliyalashtirish: Boshlang‘ich kapitalni aniqlash uchun, kompaniya o‘z moliyasini baholaydi va aktivlarning qiymatini aniqlab



chiqadi. Bu baholash jarayoni boshlang'ich kapitalning ne'matlarini aniqlashda yordam beradi.

Aktsiyalar Tashkil Etish: Kompaniya boshlang'ich kapitalni o'tkazish uchun aktsiyalar sotish orqali kapitalni jamlash uchun e'lon qiladi. Bu jarayonda kompaniya o'z faoliyatidagi talablariga qarab, aktsiyalarini sotish yo'li bilan bo'lishadi.

Investitsiyalar va To'lovlar: Aktsionerlik jamiyatlarida pul mablag'larining tashkil etilishida, investitsiyalar va to'lovlar katta ahamiyatga ega. Bu investitsiyalar boshlang'ich moliyaning yanada o'sishiga yordam beradi va kompaniyani o'sishiga imkoniyat yaratadi.

Hisob-kitob va Hisob Kitob: Kompaniya boshlang'ich kapitalni aniqlab chiqish va moliyalashtirish jarayonlarida, hisob-kitob va moliyalash jarayonlari muhimdir. Bu jarayonlarda moliya bo'limi kompaniya moliyasini boshqarishda va hisob-kitob jarayonlarida to'lovlar haqida qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi.

Qonun va Boshqaruv: Kompaniya pul mablag'larining tashkil etilishida qonun va boshqaruvning muhim roli bor. Kompaniya boshqaruvi pul mablag'larini qonun bo'yicha to'g'ri ishlatish va xarajatlarni to'g'ri taqsimlashda muvaffaqiyatli bo'lishi kerak.

Bu bosqichlar birlamchi aktsionerlik jamiyatlarida pul mablag'larining tashkil etilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan asosiy jarayonlardir. Pul mablag'larining saklanishi va ularning tugri foydalanish javobgarligi korxonada rahbari va buxgalteriga yuklatiladi. Ular kassa va bank muammolari koidalari rioya qilishi va ularni belgilangan kat'iy tartibda tugri rasmiylashtirishlari zarur. Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bulganligi uchun korxonada mablag'lari bir vaktning uzida aylanishning barcha boskichida bulishi mumkin, bunda pul mablag'lari korxonada iqtisodiyotida aloxida ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarish jarayonining barcha boskichlari ta'minotchi ishlab chiqarish va sotish boskichlarida pul mablag'lari u yoki bu mikdorda sarflanadi. Shuning uchun xam aktsionerlik



jamiyatlarida doimo ma`lum miqdorda pul mablag`larini bulishi takazo etadi. Pul qiymat o`lchovi bo`lib-bu tovarning ma`lum qiymatidagi pul summasiga tengligini ko`rsatadi va tovar qiymatining miqdori hisoblanadi. Pulda ifodalangan tovar qiymatining bahosi hisoblanadi. Qiymat o`lchovi vazifasi asosan baho orqali amalga oshiriladi.

Aksionerlik jamiyatlarida pul mablag`lari muomala jarayonida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo`lgan resurslarni sotib olish va ko`rsatilgan xizmat va bajarilgan ish xajmlari uchun to`lov vositasi hisoblanadi. Pulga korxonada hamma zarur resurslarni sotib olish va barcha to`lovlarni amalga oshirishi mumkin. U xo`jalik sub`ektlari o`rtasidagi barcha hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi universal o`lchovdir.

Pul jamgari shartnomasini bajarganda boylik to`plashga xizmat qiladi. Albatta, pul boylikning asosiy shakli, lekin uning yagona shakli emas, ammo pul boylik to`plashning eng qulay vositasi hisoblanadi. Ammo buning uchun pul qadrligi bo`lishi kerak. Respublikamizning milliy valyutasini qadrligi bo`lishini ta`minlash mamlakatimizning eng asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida xo`jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayonida doimo boshqa xo`jaliklar bilan iqtisodiy aloqada bo`ladilar. Bunday aloqalarini olib borish xo`jaliklarning asosiy faoliyati hisoblanadi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulotlarni o`z vaqtida jo`natish hamda sotish jarayoni ta`minlanadi. Xo`jalik aloqalari shartnomalar bilan rasmiylashtirilib, ularga asosan bir tomon mahsulot (ish va xizmat) larni taklif etuvchi (sotuvchi), ikkinchi tomon esa – xaridor sifatida qatnashib, to`lovni amalga oshiruvchi bo`lib qatnashadi.

Mahsulot (ish va xizmat) larni yetkazib beruvchi bilan uning haqini to`lovchilar orasidagi hisoblashishlar o`z vaqtida tashkil etilishi aylanma mablag`larning



aylanish tezlashishiga ta'sir qilib, olinadigan va to'lanadigan mablag'larning paydo bo'lishiga barham beradi. Shuningdek, xo'jaliklarning budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli idoralar hamda ishlab chiqarishda, boshqaruv apparatida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar bilan hisoblashishlar vujudga keladi.

Xo'jalikning boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hisoblashishlari naqd pullik yoki naqd pulsiz, ya'ni pul o'tkazish yo'li orqali to'lovni oluvchining hisob raqami ochilgan bankka o'tkazib beriladi. Bugungi kunda subyektlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha hisoblashishlar nizomga ko'ra pul o'tkazish yo'li orqali amalga oshiriladi. Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish, ularning boshqa xo'jalik hamda tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob – kitoblarini amalga oshirish, shuningdek, qaytarib olish to'lovlilik va muddatlilik sharti bilan bo'sh mablag'larni joylashtirish maqsadida tashkil etilganligidir. Respublikamizda bank tizimi davlat Markaziy banki va tijorat banklaridan tashkil topgan bo'lib, ular o'z mijozlariga shartnoma asosida xizmat ko'rsatadi. Mijozlar bank xizmatlaridan foydalanishda mustaqil ravishda o'zlari tanlagan bir yoki bir nechta banklarda hisob-kitob-pul bilan bog'liq operatsiyalari amalga oshiradi. Shu bilan birga ishlab chiqarish faoliyati kengaytirish maqsadida bankning kredit resurslaridan foydalanishlari va maqsadli kredit munosabatlari yuzasidan kredit shartnomalarini rasmiylashtirishlari mumkin. Korxonalar banklarda hisob-kitob va valuta schyotlaridan tashqari, maxsus joriy schyotlari (limitlashtirilgan chek daftarchalari, akkreditivlar, maxsus schyotlar va b.) dan ham foydalanishlari

Ilmiy rahbar: dot.S.Mahmudov

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun Toshkent—2016y



2. O'zbekiston Respublikasining "Inventarizatsiyani tashkil etish va uni o'tkazish"-1999y
3. "Inventarlar" to'g'risidagi buxgalteriya hisobi xalqaro standarti.--2003
4. M. Yusupova , G. Raximova " Buxgalteriya hisobi" . Darslik Toshkent – 2021-yil
5. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma " to'g'risidagi buxgalteriya hisobi milliy standarti. (21-BHMS) 2002.
6. "Inventarlar "to'g'risidagi buxgalteriya hisobi xalqaro standarti.
7. "Buxgalteriya hisobi" darslik . A.A.Karimov, S.A.Jumanazarov Toshkent. 2019